

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYNAZAROV NURADDIN SHAVKATOVICH

**O‘QUVCHI YOSHLARDA ILMIY VA DINIY TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY DIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Xudaynazarov Nuraddin Shavkatovich

О'quvchi yoshlarda ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy
differensial xususiyatlari 3

Худайназаров Нураддин Шавкатович

Социально-дифференциальные особенности формирования научного и
религиозного мышления у учащейся молодежи 21

Khudainazarov Nuraddin Shavkatovich

Socio-differential features of the formation of scientific and religious thinking
among students 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of works published 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYNAZAROV NURADDIN SHAVKATOVICH

**O‘QUVCHI YOSHLARDA ILMIY VA DINIY TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY DIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fa1575 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajiyeva Maqsuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yazdonov Ulugbek Toshmurotovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Shermanov Isobek Chilmamatovich
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40; ye-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo'layotgan global o'zgarishlar inson omiliga, uning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini va intellektual faolligiga alohida talab qo'yimoqda. Bugungi ayniqsa, axborotlashgan davrda jamiyat a'zolari, xususan yoshlarning ijtimoiy-falsafiy tafakkuridagi o'zgarishlarni ijobiy tomonga yo'naltirish hamda salbiy ta'sirlarga qarshi tura oladigan yangicha fikr yuritishga, yangicha ishlashga ehtiyoj paydo qilmoqda. Shu sababdan, jahondagi milliy taraqqiyot g'oyalarini o'zida uyg'unlashtirib, o'zaro hamjihatlik tamoyillari asosida umuminsoniyat manfaatlari va intilishlariga mos bo'lgan ham ilmiy, ham diniy tafakkurni shakllantirish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Jahon ilm-fani taraqqiyotida kishilarning tarixan takomillashib borgan, ijtimoiy-falsafiy tafakkurdagi o'zgarishlarga doir empirik va fundamental ahamiyatga ega ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur olib borilayotgan tadqiqotlarda ilmiy va diniy bilimlarning vujudga kelish jarayoni, insoniyatning dunyoqarashiga xos immanent xususiyatlari ilmiy tahlil qilinib, uning shakli yangi bosqichga o'sish holati va rivojlanish jarayonlariga ta'sirini ilmiy nuqtai nazardan asoslab berish zarurati paydo bo'lmoqda. Xususan hozirgi axborotlashuv jarayonlarining konstruktiv va destruktiv omillariga birdek javob qaytara oladigan, tarix saboqlaridan to'g'ri anglab mantiqan yondashgan holda xulosa chiqara oladigan, yoshlarni ilmiy-diniy ongi, tafakkurini shakllantirishning zamonaviy omillari va mezonlarini ishlab chiqish hamda ilmiy tadqiq etish bugungi kunda o'zgaruvchi zaruriyatga aylanmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, diniy, huquqiy, siyosiy sohalarida keng qamrovli islohotlar va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar zaminida milliy falsafa, qadriyatlar tizimi, ma'naviy merosni tiklash muhim ahamiyat kasb etadi. "Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyasini farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog'chadan va maktabdan boshlab singdirishimiz zarur. Buning uchun tarixni, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o'rganish kerak"¹. Xususan bugungi kunda xalqimizning, ayniqsa yoshlar qatlamining yangicha tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga o'rgatish hamda ular ongini rivojlantirish omillari, mezonlari, usul va vositalarini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyundagi O'RQ-630-son "Innovation faoliyat to'g'risida"gi Qonuni hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] // Ш.М.Мирзиёев - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. -Б. 23.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirish muammolari mudom falsafiy tadqiqotlarning, sosiologik, gnoseologik, antropologik, pedagogik va psixologi hamda estetik fanlarining tadqiqot ob‘yektlaridan biri bo‘lib kelgan. Shu ma’noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

Xorijiy davlatlarda ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirish masalalari biri izlanuvchilar ahli diqqatini tortib keladi. Xususan, Antik davr faylasuflari Fales, Aristotel, Platon, Pittak, Suqrotidan tortib, yangi davrda R.Dekart, F.Bekon, L.Feyerbax, Gelvesiy, I.Kant, Gegel, F.Nisshe, G.Gadaamer, L.Vitgenshteyn, E.Taylor, J.Frezer, M.Buber, Osho, Shri Aurobindo, Mayk A.Meyls, N.S.Kon, Korn Manxeym S.Radxakrishnan, S.Oldenburg R.Nelso va A.Jonsonlarlar tafakkur masalalarini tadqiq qilishgan¹, hamda ko‘plab asarlar yaratishgan. Ular inson tafakkurining mifologik, teologik, gnoseologik, psixologik va ilmiy-falsafiy masalalariga oid fundamental fikrlar bayon etilgan. Bu tadqiqotlar turli davrlarda yaratilgan, ba’zilar antik tafakkurni ifoda etsa-da, ular xozir xam, ilmiy metodologik nuqtai-nazardan, muammoni ob‘yektiv o‘rganishga yordam beradi.

MDH tadqiqotchi va izlanuvchilar, V.Solovyev, N.Berdyayev, V.Rozanov, L.Shestov, F.A.Losev, N.I.Konrad, S.A.Shuyskoy A.N.Leontev, K.K.Plotonov, A.A.Badalov, P.I.Bobochkin, L.S.Vigotskiy kabi ko‘plab olimlar tafakkur masalalarini tadqiq qilishgan. Ijtimoiy-falsafiy jixatdan, ilmiy bilim, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, insonning ijtimoiy borliqni o‘zgartirish va takomillashtirishga doir extiyojlar maxsuli xisoblanadi. Ilmiy bilim kundalik kuzatuvlardagina iborat emas. Ha, kundalik kuzatuv, tajriba, inson tasavvurlariga ta’sir etdi, unda ma’lum ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

¹ Платон. Сочинения в четырех томах. Том 3. Часть 1. – СПб: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2006. -752 с.; Аристотель. Политика. Риторика. – Москва: “Эсмо”, 2019. – 300 с.; Декарт Р. Сочинения в двух томах. Том 1.-Москва: Мысль, 1989. С. 79.; Кант И. Религия в пределах только разума. Сочинения в восьми томах. Том 6.-Москва: Мысль, 1994; Гегель. Философия религии в двух томах. Том 1.-Москва: Мысль, 1976. С. 253; Тайлор Э.Б. Первобытная культура. - Москва: Политиздат, 1989. С.7- 8; Бабочкин П.И., Плотников А.Д. Положение молодой семьи в Российской Федерации, 2001 год (По итогам социологического исследования “Положение молодой семьи в Российской Федерации в 2001 году). – М.: 2002; Бердяев Н.А. Диалектика божественного и человеческого.-Москва: АСТ ФОЛИО, 2005. С. 195; Лосев Ф.А. Мифология, символизм и поздняя античная эстетика.-Москва: Наука, 1991. С.345; Конрад Н.И. Восток и Запад. Статьи.-Москва: Наука, 1974; Mike A. Males. Kids And Guns. Common Courage Press, 2001; Mike A. Males. The Scapegoat Generation: Amerika`s War On Adolescents, 1996; Mike A. Males. Framing Youth: 10 Myths About the Next Generation. Common Courage Press, 1999; Mike A. Males. Smoked: Why Joe Camel Is Still Smiling. Common Courage Press, 1999, Кон Н.С. Социология молодежи. В кн.: Краткий словарь по социологии. – М.: 1988; Шуйской С.А. Книга перемен. Китайская классическая литература.-Москва: “Восточная литература”, 1999; Johnson A. Functions in Innovation System Approaches, Gothenburg, Sweden: Chalmers University of Technology, 2002.

So'ngi davrlarda falsafaning zamonaviy, ilmiy va diniy tafakkur masalalarini o'rganish hamda tadqiq etish faollashmoqda. Bu esa ilmiy tadqiqotlarni tor sinfiy qarashdan voz kechilgani, xamda ilm va din fenomenlaridagi umumiylikni, inson va jamiyat taraqqiyotini faollashtiruvchi jihatlarni tadqiq etuvchi yangi va zamonaviy paradigmaning shakllanayotgani bilan o'zaro bog'liqligini nomoyon etadi.

O'zbekistonda ilmiy tafakkur va diniy tafakkur masalalarining ilmiy metodologik masalalarini M.Xayrullayev, E.Yusupov, S.Shermuhamedov, J.Bozorboyev, A.Choriyev, A.Saidov, S.Gulyamov va M.Sharifxo'jayevlar, O.Fayzullayev, M.Axmedova, N.Komilov, O.Musurmonova, R.Mahmudov, M.Quronov, B.Adizov, I.Saifnazarov, R.Shodiyev, A.Erkayev, T.Saidboyev, M.Qodirov, T.Karim, N.Usmanov, B.Abdullayeva, M.L.Abdujabbarova, X.To'raqulov, K.Pardayeva, G. K. Nazirova, Sh. K. Ismailova, E.H. Ibragimov kabi tadqiqotchilar o'rganishgan¹. Ularda etnopedagogik va ijtimoiy-falsafiy jihatlarga e'tibor qaratiladi, tafakkur va dunyoqarashning milliy va etnik, umumbashariy, umuminsoniy jihatlarga oid fikrlar asoslanadi. Mazkur ilmiy tadqiqotlar tafakkur fenomenining milliy turmush tarzi, mentaliteti, inson ruhiyati va dunyoqarashi, olamni anglashga qaratilgan gnoseologik bilimlar, qiziqishlari bilan mushtarakligini aniqlashga va shu jihatdan mazkur masalalarning turli tamonlarini, ekzistensial belgi va xususiyatlarini aniqlab olishga yordam beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017-2030 yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchi yoshlarda ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy differentsial xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqodning vazifalari:

tafakkur fenomenining ijtimoiy, etimologik, falsafiy xususiyatlarini va gnoseologik qiziqishlari bilan o'zaro bog'liq omillarini ochib berish;

yoshlarni bilim, tafakkuri hamda dunyoqarashining fenomenal va funksional jihatlari aniqlash;

ilmiy va diniy tafakkurning o'zaro mushtaraklik xususiyatlarini gnoseologik, metodologik hamda retrospektiv va ijtimoiy-falsafiy yondashishlar orqali asoslash;

¹ Бозорбоев Ж. Ёшларда илмий дунёқарашни шакллантириш.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2014; Комилов Н.Тасаввуф. Биринчи китоб.-Тошкент: Шарқ, 1999; Эркаев А. Тарих сабоқлари ва Учинчи Ренессанс зарурати // "Халқ сўзи", 2021, 6 январь; Қаранг: Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб.- Т.: Чинор, 2002; Педагогика (Педагогика назарияси ва тарихи). М.Х.Тохтахожаева, С.Нишонов, Ж.Хасанбоев ва бошқ.-Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2010. 231 б; Жуманова Ф.Ҳ., Назирова Г.К. Мактаб ўқувчиларида соғлом турмуш тарзини ривожлантиришнинг психологик-педагогик омиллари // Academic research in educational sciences, 2021, vol. 2, №6; Жуманов Д. Ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятига таъсири // Academic research in educational sciences, 2021, №4; Ибрагимов Э.Ҳ. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири: Фалс.ф. бўйича фалс.д. (PhD) дисс.автореф.- Самарқанд: СамДУ, 2020.

o'quvchi va yoshlarda ilmiy-diniy tafakkurni shakllantirishining zamonaviy tendensiyalari, ilmiy-texnik taraqqiyot talablari jihatdan shakllantirishning pedagogik va psixologik hamda falsafiy jihatlarini ochib berish;

Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessansning yetuk va barkamol avlodda kreativ fikrlashga undash hamda intellektual bilim va faollikni tarbiyalashga, shu asnoda ilmiy va diniy bilimlarga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirishga bo'lgan ta'sirini o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktab o'quvchilarida ilmiy va diniy tafakkurning namoyon bo'lish xususiyatlari olingan.

Tadqiqotning predmetini o'quvchi yoshlarda ilmiy tafakkur va diniy bilimlar uyg'unlashuvi jarayonlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada tarixiylik, taqqoslash, qiyosiy tahlil va umumlashtirish, kompleks yondashuv, analiz va sintez, retrospektiv va tizimli funksional tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tafakkur fenomenining etimologik (izlanishlar mahsuli), gnoseologik va ijtimoiy falsafiy jihatlaridagi dinamik o'zgarishlar hamda deterministik xususiyatlariga (aqliy, ruhiy va axloqiy tarbiya) ko'ra inson va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi sub'ektiv voqelik ekanligi mantiqiy asoslangan;

yoshlar dunyoqarashining fenomenal (aql, idrok) va funksional jihatlarini (ongni shakllantirish) kommunikatsion, aksiologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishiga ko'ra ilmiy tafakkur va diniy tafakkur, ratsional va irratsionallik orqali namoyon bo'lishi isbotlangan;

maktab o'quvchilarida ilmiy va diniy bilimlarni shakllantirishning ijtimoiy differentsial xususiyatlarini (fikir izlash, fikrlash, mushohada yuritish) aniqlash orqali ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan oqilona foydalanishning falsafiy-pedagogik mexanizmlari aniqlashtirilgan;

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans g'oyasi ta'sirida miliy tarbiya samaradorligini oshirishda yoshlarning intellektual faolligini yuksaltirish bilan bog'liq ilmiy-funksional, regulativ-baholovchi mezonlarini takomillashtirish zarurligi mantiqiy dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalariga quyidagilar kiradi:

ilmiy va diniy bilimlar uyg'unlashuvining mutlaq yangi paradigmaga, ya'ni ular o'rtasidagi antagonistni izlash an'anasidan voz kechish orqali yangi ijtimoiy-amaliy yondashuvni yaratishga xizmat qilgani asoslab berilgan;

o'quvchi yoshlarda ilmiy tafakkur va diniy tafakkurni shakllantirish turli sinflarda turlicha kechadi, lekin barcha o'quvchi yoshlarda ilmiy bilimlarga bo'lgan intilish ustuvorlik qilgani uchun ko'plab o'quv dasturlari, fanlar, amaliy mashg'ulotlar dunyoviy, ilmiy xususiyat kasb etishi zarurligi isbotlab ko'rsatib o'tilgan;

ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirish jarayonida ijtimoiy-falsafiy jixatlarining mukammallashtirish buyicha o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ommaviy

axborot vositalarining mediakontentlarini tayyorlashda, olimpiyadalar va o'quvchilarni bilimdonligini agiqlashga doir turli tadbir va musaboqalarni tashkil qilishda nazariy-metodologik asosi sifatida qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy manbalar: qonunlar, farmonlar, qarorlar va davlat dasturlariga, xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida ilgari surilgan g'oyalarga tayanilganida, muammoga oid xabarlar turli nashrlarda va ilmiy davralarda e'lon qilinganida, ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalarning ijtimoiy-tarbiyaviy institutlar faoliyatiga joriy etilgani va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilmiy izlanishlar natijalaridan ilmiy va diniy tafakkur masalalari bilan faoliyat yurituvchi ta'lim tizimlari, mahalla va ma'rifiy targ'ibot olib boruvchi markazlarida hamda ilmiy-diniy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga oid tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ulardan maktab o'quvchilarida ilmiy tafakkur va diniy tafakkurni uyg'un shakllantirishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlarda, ommabop ma'ruzalar o'qishda, maktabdan tashqari ishlarda, maktablar va boshqa tarbiya o'choqlari faoliyatida qo'llaniladigan darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foylanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quvchi yoshlarda ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirish hamda ularni namoyon bo'lish xususiyatlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiya va takliflar asosida:

tafakkur fenomenining etimologik (izlanishlar mahsuli), gnoseologik va ijtimoiy falsafiy jihatlaridagi dinamik o'zgarishlar hamda deterministik xususiyatlariga (aqliy, ruhiy va axloqiy tarbiya) ko'ra inson va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi sub'ektiv voqelik ekanligi mantiqiy asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalardan Buxoro davlat universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusidagi OT-F1-002 raqamli fundamental loyiha ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2021 yil 14 dekabrda 01-04/01-1244-son ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy grant loyihasi ijrosini ta'minlash bilan birgalikda, yosh avlod tafakkurida ilmiy va diniy bilimlar asosidagi zamonaviydu nyoqarashni shakllantirishga xizmat qilgan;

yoshlar dunyoqarashining fenomenal (aql, idrok) va funksional jihatlarini (ongni shakllantirish) kommunikatsion, aksiologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishiga ko'ra ilmiy tafakkur va diniy tafakkur, ratsional va irratsionallik orqali namoyon bo'lishiga oid taklif-tavsiyalardan "Yuksalish" umummilliy harakatining 2021 yilga mo'ljallangan "O'zbekistonda innovatsiyalar uchun hamkorlik" dasturini amalga oshirishda foydalanilgan ("Yuksalish" umummilliy harakatining 2021 yil 30 noyabrda 12-73/21-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz va hududlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq davlat, sohaga oid va hududiy, davlat va jamiyat qurilishini isloh

qilish va modernizatsiya qilish bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish ishlarini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

maktab o'quvchilarida ilmiy va diniy bilimlarni shakllantirishning ijtimoiy differensial xususiyatlarini (fikr izlash, fikrlash, mushohada yuritish) aniqlash orqali ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan oqilona foydalanishning falsafiy-pedagogik mexanizmlariga oid taklif-tavsiyalardan Buxoro davlat universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusidagi OT-F1-002 raqamli fundamental loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2021 yil 14 dekabrda 01-04/01-1244-son ma'lumotnomasi). Natijada, yurtimizda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, zamonaviy ta'limni joriy etish, intellektual boy, innovatsion izlanishlarga qodir avlodni tarbiyalash borasida dadil islohotlar haqidagi yangicha yondashuvlar, fikrlar va nazariy xulosalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans g'oyasi ta'sirida miliy tarbiya samaradorligini oshirishda yoshlarning intellektual faolligini yuksaltirish bilan bog'liq ilmiy-funksional, regulativ-baholovchi mezonlarini takomillashtirish zarurligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DUKning 2021 yil sentyabr va oktyabr oylarida e'fira uzatilgan "Bugunning yoshlari", "Maktab hayoti" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2021 yil 7 yanvardagi 04-25-222-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchi yoshlarni ilmiy dunyoqarishini oshirish va intellektual faolligini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, OAK ro'yxatidagi jurnallarda 4 ta, xalqaro konferensiyalarda 2 ta va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobasiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa va "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"dan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya bajarilayotgan muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti va usullari yoritilgan.

Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ilmiy va diniy tafakkur nazariy, ijtimoiy falsafiy tadqiqotlar ob’yektlari sifatida”** deb nomlanadi. Ushbu bobda Tafakkurning ijtimoiy-falsafiy va gnoseologik talqinlari, uning funksional xususiyatlari bilan bog’liq masalalar tadqiq etiladi.

Bobda diniy bilimlar genezisiga oid masalalar ham o’rganiladi, chunki ularni o’rganish diniy bilimlarga rasional yondashish imkonini beradi, ularni mutlaqlashtirishdan asraydi, tafakkurning fenomenal xususiyatlarini ijtimoiy talablarga muvofiq ochib berish imkonini beradi.

Ushbu bobning **“Tafakkur fenomeni: etimologik, ilmiy va ijtimoiy falsafiy tahlil”** deb nomlangan birinchi paragrafida dissertant tafakkur borasidagi fikrlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etib o’tadi. “Falsafa lug’ati” asarida tafakkurga “alohida tarzda tuzilgan materiya miyaning oliy mahsuli, ob’yektiv olamning tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar va hokozolardagi in’ikosining aktiv prosessi” deb ta’rif beriladi¹. Mazkur “aktiv prosess” aql, idrok, bilish va dunyoqarash sub’yektiv fenomenlarini oldinga chiqaradi, aynan ular tafakkurga faollik, baxsh etadi. “Falsafa ensiklopediyasi”da tafakkur kengroq talqin qilinadi. “Tafakkur ob’yektiv olam in’ikosining oliy shakli; ob’yektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Ong jarayonida insonda fikr, mulohaza, g’oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushuncha, hukm, xulosalar shaklida ifodalanadi”². Shu bilan birga, mualliflar tafakkurga “kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo’ladi. Tafakkur ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Barcha ijtimoiy hodisalar kabi tafakkur uslubi ham ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. U ishlab chiqarish usuli, jamiyat ijtimoiy tarkibi, mafkuraviy qarashlar va boshqa ijtimoiy munosabatlarga bog’liq holdagina mavjuddir”, deb ta’rif berishadi³. tafakkurni sub’yektlariga qarab shaxsiy, guruh, milliy, etnik, umuminsoniy kabi ko’rinishlarga ajratish mumkinligini ushbu bobda qayt etib utadi. Ularning har biri mustaqil tadqiqotlar ob’yekti (predmeti)dir. Aql, idrok jamiyat va inson faoliyatini umumiy normalar, qadriyatlar negizida uyg’unlashtiruvchi omildir. Faqat aqlga, idrokka tayangan jamiyat va inson ikki sub’yekt sifatida bir-birini tushunadi, bir-birini qo’llab-quvvatlash orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini anglaydi. O’z paytida Aristotel, “ba’zilar aqlga muvofiq harakat sodir etadilar va ularning qobiliyatlari ham aqlga muvofiqdir”, deb yozgan edi⁴. Faylasufning “harakat” tushunchasini keng ma’noda (“harakat hayot manbai”) talqin qilsak, ijtimoiy taraqqiyot aql, idrok orqali yaratiladi, degan xulosaga kelamiz. Aql, idrokning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini buyuk fransuz faylasufi Rene Dekart keng ochib bergan. U aqlni, “universal vosita”, “qobiliyat”, “hamma narsani yetaklovchi”, “tabiiy kuch”, “cheklangan sifat”, “moddiy

¹ Фалсафа луғати. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 475 б.

² Фалсафа энциклопедияси. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2010. 275 б.

³ Ўша жойда

⁴ Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 1.-Москва: Мысль, 1976. С. 240

narsalarni tasavvur etuvchi obraz”, “sof aql” kabilarda ko‘radi. Uning fikricha, insonning ilmiy izlanishlari va aqli, idroki ular anglab yetadigan “ishonchli va shubhasiz bilish mumkin bo‘lgan” narsalardan iborat bo‘lmog‘i kerak¹. “Hech qanday bilimni aql intuisiyasiz yoki deduksiyasiz egallash mumkin emas”². Bu o‘rinda faylasuf aql, idrok tayanadigan tajribalarni tilga oladi va ular orqali shakllantiriladigan bilimni qo‘llab quvvatlaydi. “Yaxshi aqlga ega bo‘lish yetarli emas, eng muhimi uni tadbiq etishdir”³. Agar rasionalist faylasufning ushbu pastulatidan kelib chiqsak, tafakkurning bo‘lishi emas, uning aql, idrok orqali amaliyotga, faoliyatga tadbiq etilishi muhimdir. Mazkur paragrifda, tafakkurning fenomenligi ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri, ulardagi ifodasi mahsuli eanligiga ham urg‘u yuyerilib o‘tiladi. Mazkur mahsulning shakllanishi turli bosqichlardan iborat. Ijtimoiy falsafiy adabiyotlarda ular ijtimoiy ongning sub’yektlariga ko‘ra-shaxsiy, guruhiiy, milliy va umuminsoniy, ob’yektlariga ko‘ra-sub’yektiv va ob’yektiv, turlariga ko‘ra-mifoteologik, falsafiy, ilmiy, psixologik, jihatlariga ko‘ra-sensitiv, empirik, metafizik, ma’rifiy tarbiyaviy xususiyatlariga ko‘ra-ideologik, pedagogik, liberalistik, hayotiy maqsadlar bilan bog‘liqligiga ko‘ra-qarashlar, e’tiqodlar, ideallar, funksional jihatlariga ko‘ra-ma’rifiy-tarbiyaviy, texnologik, prognostik kabilarga ajratiladi⁴. Mazkur klassifikasiya va yondashuvlar ssiyentik nuqtai-nazardan e’tiborga loyiq, chunki ular ob’yektni tizimli funksional tahlil etish imkonini beradi. Ma’lumki, tizimli funksional tahlil ob’yektning bir qarashda ilg‘anmagan, ichki xususiyatlariga ko‘ra ma’lum bir tizimlardan iborat, bu tizimlarning bir-birilariga permanent va dialektik bog‘liq jihatlarini ochib beradi⁵. Tadqiqotchining maqsadi va yo‘nalishlaridan kelib chiqsak, tafakkur fenomenini mifoteologik, falsafiy va ilmiy nuqtai-nazardan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu bobning **Diniy bilimlar genezisi va uning ijtimoiy borliqni anglashdagi o‘rni** deb nomlangan ikkinchi paragrafida Dunyoviy (ilmiy) bilim(tafakkur) qanday xususiyatlarga ega bo‘lsa, diniy (noilmiy) bilim (tafakkur)lar ham shunday xususiyatlarga ega. Ularning qaysi biri avval paydo bo‘lganini aniqlash murakkab ish, bunday yondashuv biror natijalarga olib kelmaydi. Chunki diniy bilimlarni biz qanchalik ibtidoiy tasavvurlardan keltirib chiqarmaylik, bu tasavvurlarimizda aql, idrok elementlari borligini inkor

¹ Декарт Р. Сочинения в двух томах. Том 1.-Москва: Мысль, 1989. С. 79.

² Ўша асар. С.86.

³ Ўша асар. С.251.

⁴ Анисимов О.С. Методология: функционирование, сущность, становление (динамика и связь времен). - Москва: БИУ, 1996; Бергер П, Лукман Т. Социальное конструирование реальности: Трактат по социологии знания.-Москва: Медиум, 1995; Ардишевский Р.А. Мировоззрение: сущность, специфика, развитие.-Львов, “Наука думка”, 1986; Философия и мировоззрение. Сост. П.В.Алексеев.-Москва: Наука, 1990; Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Экологическая педагогика и психология.-Ростов на Дону, РГУ, 1996; Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь-Москва: “Академия”, 2003; Кувакин В.А. Научное мировоззрение и гуманизм. Вестник Московского университета. Сер. 7. Философия, 2006, №4; Бозорбоева Ж. Ёшларда илмий дунёқарашни шакллантириш. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2014

⁵ Родионов М.Г. Структурно-функциональный и системный анализ как инструменты научного познания.- Москва: Альфа-М., 2013; Астоловский А.В. Парадигма структурно-функционального анализа в американской академической социологии. - Свердловск: СГУ, 2017; Парсонс. Т. Система современных обществ.-Москва: “Научная книга”, 1998

qilolmaymiz. Biroq ilmiy adabiyotlarda goho ibtidoiy, mifoteologik tasavvurlar dunyoviy, ilmiy qarashlardan qadimiy voqeliklar sifatida talqin qilinishi ham kuzatiladi¹. Chamasi mualliflar ibtidoiy tasavvurlarni qadimiy tasavvur etganlarida ularning ong, aql, idrok bilan bog‘lanib kelishini nazarga olmaydilar, mifoteologik tasavvurlar ham ma‘lum bir rasional yondashish mahsuli ekaniga e‘tibor bermaydilar. Bunday yondashuv aslida dinlar tarixiga oid asarlarning deyarli barchasida uchraydi. Bu o‘rinda gap qaysi tafakkur (bilim)larning qadimiyligi ustida ketmasligi, balki ularning ongda, tafakkurda, inson hayotida uyg‘un kelishi ustida ketishi zarur. Diniy bilimlar genezisi, ilmiy adabiyotlarda ko‘p marta qayd etilganidek, ilk mifoteologik tasavvurlar-animistik, totemistik, magik, fetishistik, antropomistik qarashlarga borib taqaladi. Paragrifda, yoshlarda ilmiy bilimni shakllantirish maktabdan ya‘ni ta‘limdan boshlanishiga ham e‘tibor qaratiladi. Ilk ilmiy tasavvurlar ma‘lum bir fanlarni o‘zlashtirish, o‘rganish negizida shakllanadi. Biroq bu ta‘lim oilaviy tarbiyaning ta‘sirini rad etmaydi. Ota-ona va kattalarning qiziqishlar, faoliyati, turmush tarzi maktab o‘quvchisi yoki talaba dunyoqarashida aks etadi. Umuman insondagi stereotiplar, xulq-atvor, ijtimoiy munosablar ongdagi etnomadaniyat ta‘siri in‘ikosidir. Masalan “O‘zbek xalqining tarixiy-madaniy paradigmasiga aylangan etnomadaniyati bir tomondan uzoq rivojlanish jarayonida to‘plangan, muhim, barqaror, ba‘zan konservativ tajribalarni o‘z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, uning janr, tur va shakllarida innovasiyaga, transformasiyaga mayillik dialektik tarzda bir-birini to‘ldirib, milliy madaniyatni shakllantirgan”² Oiladagi tarbiya, shu jumladan maktabdagi ta‘lim ham ushbu milliy madaniyatning ko‘rinishlari hisoblanadi. Shuning uchun ilk tasavvurlarning shakllanishi negizini oiladagi tarbiya, keng ma‘noda esa milliy madaniyatdan izlash kerak. Tadqiqotda, animistik tasavvurlar barcha mavjudotda jon borligini tan oluvchi qarashlar mavjudligi borasidagi g‘oyalar ham o‘rin olgan. Ibtidoiy kishilar o‘zini borliqdan, tabiatdan ajratmagani uchun o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarni yon atrofiga tadbiq etgan. Agar ibtidoiy odam biror nima joniga ozor yetkazsa, u boshqa narsalar va jonivorlarga ham shunday ozor yetkazadi, degan primitiv hayollarga borgan. Shuning uchun u daraxt, suv, o‘simlik, tosh, loy va boshqa narsalarga, xuddi kishilar kabi, o‘ylash, ozorlanish, shodlanish xos deb bilgan. Ilmiy etnografik adabiyotlarda ushbu tasavvurlar keng yoritilgan, ochib berilgan³. Biz uchun muhim jihati shundaki, animistik tasavvurlar dunyoni yaxlit, universal birlik, butun tasavvur etgan va, aynan ushbu konseptual g‘oya keyinchalik diniy bilimlarga o‘tgan. Dinlardagi olamga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, ekologik ta‘lim tarbiyaga oid fikrlar hanuzgacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Animistik qarashlar to‘g‘ridan to‘g‘ri diniy bilimlarga o‘tmagan, albatta. Ular ijtimoiy ong va tarixiy o‘zgarishlar ta‘sirida transformasiyaga uchragan, dinda antroposentrik qarashlarning shakllanishi bilan animistik qarashlardagi tabiat bilan uyg‘unlik

¹ Парнов Е. Боги лотоса.-Москва: Политиздат, 1980; Космические Легенды Востока. Автор составитель С.В. Стульгинские.-Москва: Сфера, 1998

² Нишонов О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. –Тошкент: Фан, 2013.

³ Тайлор Э.Б. Первобытная культура.-Москва: Политиздат, 1989; Лосев Ф.А.Очерки античной эстетики.-Москва: Наука, 1981; Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 2001

“o‘ldirma”da’vatiga aylangan. Buni dinda “o‘ldirma” da’vatining avvalo insonga yo‘naltirilganida ko‘rish mumkin. Xuddi shuningdek, bu da’vat goho butun jonzotlarga, borliqqa nisbatan ham qo‘llaniladi. Hamma narsalar joniga ega, ularga ozor yetkazish mumkin emas, degan primitiv tasavvurlar monoteistik qarashlarda avvalo antroposentrik mohiyat kasb etadi va insonga bo‘lgan tajovvuzlarni qoralovchi g‘oyalarning shakllanishiga yordam beradi. Shu asosda inson intellekti va uning imkoniyatlari o‘zining ob’yektiv, pozitiv bahosini oladi¹. Ishda, dunyoqarashning fenomenal va funksional jihatlarini ilmiy va diniy tafakkur misolida ochib beriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Ilmiy va diniy bilimlar dialektikasi va ularning yoshlar dunyoqarashlarida in’ikosi»** deb nomlanadi. Ushbu bobda dunyoviy va diniy bilimlarning xususiyatlari, tafakkur fenomenal xususiyatlarining ularga ta’siri, ijtimoiy ong, fikr, aql va idrok bilan bog‘liq funksional jihatlarini tadqiq etiladi. Dunyoqarash turli, goho ziddiyatli, antinomik voqeliklar ta’sirida shakllanadigan murakkab sub’yektiv, alohida, fenomenal hodisa. U mudom aql, idrok, rasional, hatto fantaziya bilan bog‘liq. Dunyoqarashning fenomenal va funksional jihatlarini ilmiy va diniy tafakkur misolida ochib beriladi.

Ushbu bobning **“Ilmiy bilimlar va diniy bilimlarning dialektik uyg‘unligi”** deb nomlangan birinchi paragrafida dissertant ilmiy bilimlar bilan diniy bilimlar dialektikasining ijtimoiy mohiyati, yuqoridagi sxematik retrospektiv yondashishga muvofiq, totemistik tasavvurlardan asta-sekinlik, ya’ni ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, tarixiy rivojlanish ta’sirlariga muvofiq transformasiyaga uchrab, ko‘p dinlik, politeistik va dualistik qarashlardan monoteistik qarashlar tomon ko‘tarilgan. Sinkretik dinlarda ham monoteistik qarashlar ustuvor. Xullas, ushbu sxematik retrospektiv yondashuv transsendentning ijtimoiy rivojlanish bosqichlarida qanday transformasiyaga uchrab, goho ular ilmiy va amaliy bilimlar o‘rnida kelganini ko‘rsatadi². Ilmiy bilimlar bilan diniy bilimlar dialektikasining ijtimoiy ko‘rinishlari aksiologik voqeliklarda ham namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ushbu bilimlar sohalarini ijtimoiy hayot, undagi ob’yektiv muammolar bilan bog‘lanishi mumkinligini bildiradi.

Ushbu bobning **Yoshlar dunyoqarashining fenomenal va funksional jihatlarini** deb nomlangan ikkinchi paragrafida Dunyoqarashning fenomenal hodisaligi hamda fenomen so‘zining ma’no va mazmuni ochib beriladi. Agar “fenomen” so‘zining etimologik mazmunidan kelib chiqsak, u har bir kishiga, aql egasiga xos, betakror voqelikdir. Dunyoqarashning tafakkurdagi in’ikosi har bir kishining ob’yektiv olamni idrok etishi, ong va bilimlar ta’sirida shakllanadigan simvollar, obrazlar va tasavvurlarining so‘z, fikr va mulohaza tarzida kelishidir. Dunyoqarashning ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligi, ong va tafakkurda ushbu bog‘liqlikning in’ikosi muammolariga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar o‘tkazilgan,

¹ The Encyclopedia of Religion. Vol. 10. N.Y.; L., 1987; Restivo S. The Social Relation of Physics, Mysticism and Mathematics.-N.Y. 1983; Угринович Д.М. Психология религии.-Москва: Мысль, 1987; Малинин В.а. Теория истории философии.-Москва: Мысль, 1986; Васильев Л.С. История религий Востока.-Москва: РАН Восточная литература, 2002; Кликс Ф. Пробуждающееся мышление: История развития интеллекта.-Москва: Наука, 1983

² Штернберг Л. Эволюция религиозных верований.-Москва: Юрайт. 2018. С. 18-42

asarlar yozilgan¹. Intellektual izlanishlarning ommaviy harakter kasb etishi o'z navbatida ilmiy va diniy bilimlarga ham ta'sir etmasligi mumkin emas. Intellektual ijod faqat ilmiy, rasional bo'lishi mumkinmi yoki u diniy, irrasional bo'lishi ham kerakmi? Tadqiqotimiz maqsadi intellektning diniy bilimlar bilan ham bog'liq jihatlari haqida o'z qarashlarimizni bildirishni taqozo etadi.

Ilmiy bilish tabiiy fanlarning natijalaridan kelib chiqadi va ularning pastulatlarini ob'yekt(premet)ining xususiyatlari, ya'ni hissiy bilish manbalaridan olingan natijalar deb qaraydi. XX asrda ilmiy bilishning ushbu metodologiyasini din, teologiya o'zlashtirib olayotgani kuzatildi. Fizik R.Rasselning fikriga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida "teologiya va fan" degan fanlararo yondashuv yuzaga keldi. Bu yondashuv falsafada "tanqidiy realizm" nomini olgan va u dinning tabiatshunoslik muammolari bilan qiziqayotganida o'z aksini topadi².

Ushbu bobning **"Transsendent va diniy bilimlarning tafakkurda zamonaviylashishi hamda ob'yektivlashishi"** deb nomlangan uchinchi paragrafida Bugun ijtimoiy ongda, tafakkurda ro'y berayotgan o'zgarishlar ko'pincha diniy bilimlarga ham borib taqalayapti. Diniy bilimlarning ilmiy asoslashga, shu tariqa ularning ob'yektiv borliqni idrok etish imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan sa'y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda. Diniy tafakkurning zamonaviylashuvi va ob'yektivlashuvi qaysi asosda va ko'rinishlarda ro'y berayapti? Bu transformasiyalashuv jarayonlarini qaysi yondashuv orqali aniqlash mumkin: ilmiymi yoki diniy? Ilmiy bilimlar bilan diniy bilimlarning zamonaviylashuvi ular negizidagi ziddiyatlarni, fundamental, metodologik muammolarni hal etishga yordam beradimi? Maxsus adabiyotlar va tadqiqotlarni o'rganish ko'rsatadiki, diniy tafakkurning zamonaviylashuvi hamda ob'yektivlashuvi ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotning umumiy qonunlari asosida ro'y bermoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, **"Yangi o'zbekiston yoshlarida ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirishning differensial xususiyatlari: muammolar, izlanishlar"** deb nomlanadi.

Mazkur bobda Yangi O'zbekistonda ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy huquqiy asoslari, mexanizmlari, institutsional masalalari tadqiq etiladi.

Ushbu bobning **"Ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-huquqiy asoslari"** deb nomlangan birinchi paragrafida dissertant yoshlar qiziqishida ijtimoiy gumanitar fanlar yetakchi o'rinda turishiga o'rg'u beradi. Maxsus tadqiqotlardan ma'lumki, yoshlardagi olamni anglashga bo'lgan qiziqish turli sinflarda turlicha aks etadi va katta sinflarga o'tgan sayin ular hayot mohiyati, olamning tuzilishi va yaratilishi, kim bo'lsam ekan, nima qilsam baxtli yashayman, jamiyatga qanday naf keltirsam bo'ladi, degan ekzistensial savollar ustida bosh qotira boshlaydilar. Hayotiy tajribaning orta borishi bilan ularning qiziqishi

¹ Философия и мировоззрение Сост. П.В.Алексеев.-Москва: Наука, 1990;.

² Russel R.J. Wegler Me Nelly K. . Science and Theology Mutual Interaction Briding Science and Religion.-L., 2003.Р. 23; Маркова Л.А. Наука и теология: от междисциплинарных отношений к диалогическим // Проблемы истории и теории культуры, 2018, № 2. С.43-44

